

FAYZULLA XO'JAYEV VA OILA A'ZOLARI TAQDIRI

Boboqulov R.E.

*O'zbekiston Respublikasi IIV Navoiy
akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo'jayev va uning oila a'zolarining mustabid sovet xokimiyati tomonidan qatag'on qilinishi va ularning qismlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, O'zbekiston SSR, Xalq Komissarlar Soveti raisi, O'zKP(b), SSSR, qatag'on, tergov, surgun, "O'ng trotskiychi blok", mehnat tuzatuv lageri.

Mustabid sovet hokimiyati unga uzoq yillar sidqidildan xizmat qilgan insonlarni ham ayab o'tirmadi. Ana shunday insonlardan biri davlat va jamoat arbobi, o'zbek xalqining atoqli farzandi Fayzulla Xo'jayev edi.

O'zbekiston SSR XKS raisi lavozimida uzoq yillar faoliyat yuritgan Fayzulla Xo'jayevni oshkora ta'qib etish 1937 yilning iyun oyida o'tkazilgan O'zKP(b) ning VII syezdida unga millatchilik aybi qo'yilib Markaziy Komitet a'zoligiga ro'yxatdan tushirib qoldirilishidan boshlandi. Syezdda Xorazm viloyati partiya komitetining birinchi kotibi N.Isroilov va O'zLKSM MKning birinchi kotibi I.Ortiqov so'zga chiqib: "ukasining o'z joniga qasd qilib (F.Xo'jayevning ukasi Ibod Xo'jayev Toshkentda 1936 yilda noma'lum sabablarga ko'ra o'zini otgan) o'zini - o'zi otgani haqida syezdda hech nima aytmadi",[1] - deya oshkora tanqid ostiga olindi.

F.Xo'jayevning qizi Viloyat Xo'jayevaning eslashicha, syezdda Farg'ona delegatsiyasining vakillari F.Xo'jayevga "xalq dushmani", ijtimoiy kelib chiqishi mulkdor tabaqadan deb ta'na toshini otishgan. Natija shunday bo'ldiki, F.Xo'jayev O'zSSR XKS raisi bo'lib ishlab turganiga qaramasdan MK a'zoligiga saylanmasdan qoldi.[2]

Fayzulla Xo'jayevning atrofida bo'layotgan yashirin harakatlarning natijasi uning qatag'onga tortilishidan dalolat bermoqda edi. Ana shu jarayonni O'zbekiston KP(b) MK birinchi kotibi A.Ikromov quyidagicha ta'riflagan: "Yopiq ovoz berish natijasida F.Xo'jayev Markaziy Komitet a'zoligiga o'tmay qoldi. Men bu haqda tunda o'rtoq Stalinga qo'ng'iroq qilib unga ma'lum qildim. U kishi menga: "hammasini demokratiya hal qiladi", - deb javob berdi.[3]

1937 yil 17 iyunda O'zKP(b) ning VII syezdi yakunlangach F. Xo'jayev yurak xurujidan uch kun yotib qolgan. 21 iyun kuni joriy ishlar haqidagi XKSning 870 - qarori hukumatning u imzo chekkan so'nggi hujjati bo'lib qoldi.[4]

1937 yil 21 iyun kuni kechqurun Fayzulla Xo'jayev bo'lib o'tgan voqealarni tushuntirish maqsadida VKP(b) MK Bosh kotibi I.Stalin qabuliga yo'l oldi. Ammo, Stalin uning iltimosini rad etdi. 1937 yil 26 iyunda O'zbekiston SSR MIQ 4- sessiyasi Y.Oxunboboyev raisligida bo'lib o'tdi.Kun tartibida O'zbekiston SSR XKS raisi Fayzulla Xo'jayev masalasi ko'rildi.Sessiyada Fayzulla Xo'jayev millatchilikda ayblanib XKS raisi lavozimidan olindi.[5] Fayzulla Xo'jayev 1937 yilning 9 iyul kuni Moskvada "Natsional" mehmonxonasida hibsga olindi.[6] Shu tariqa u 1938 yil 2-13 mart kunlari Moskvada bo'lib o'tgan sharmandali "O'ng trotskiychi blok" deb ataluvchi sun'iy o'ylab topilgan ish bo'yicha tergov qilindi va otuvga xukm qilindi.

1938 yil 12 mart kuni "ayblanuvchi", "o'ng trotskiychi blok" a'zolaridan V.Ivanov, N.Krestinskiy, P.Zubarev, A.Rikov, V.Sharangovich, F.Xo'jayev, I.Zelenskiy, A.Ikromov, A.Rozengolslarga so'nggi so'z berildi.[7] F. Xo'jayev o'ziga berilgan so'nggi so'zda o'ziga qo'yilayotgan barcha ayblovlarni tahlil etib quyidagicha so'zlagan: "... Shaxsan men hech qachon ig'vogar, qotil bo'lmaganman... Agar men o'z hayotimdagi ushbu so'nggi soatda shafqat so'ramayman deb aytsam, yolg'onchi bo'laman. Men yashashni istayman".[8] Fayzulla Xo'jayev 1938 yil 13 martdagi mashinkada yozilgan avf iltimosnomasida 70 yoshdan oshgan onasi va 18 nafar yosh bolalar uchun shafqat so'ragan.[9] Afsuski marhumning oxirgi iltimosi inobatga olinmadi va uning oila a'zolari ham qatag'on girdobiga tortildi.

Fayzulla Xo'jayev qamoqqa olingach uning oila a'zolarini ham qamoqqa olish jarayoni boshlandi. 1937 yil iyun oyining o'rtalaridan boshlab «xalq dushmani» tamg'asi bosilgan kishilarning oila a'zolari, birinchi navbatda, xotinlari qamoqqa, bolalari esa qamoqlashtirilgan bolalar uylariga olina boshladi.

Agar aksar oilalardan faqat oila boshlig'i bilan uning rafiqasi qatag'on girdobiga tortilgan bo'lsa, Fayzulla Xo'jayev oilasiga mansub ayolllar va bolalar qatag'on qilingan.Fayzulla Xo'jayev oila a'zolarini qamoqqa olish 1937 yil 22 sentabrda boshlandi.Shu kuni Fayzulla Xo'jayevning onasi Xo'jayeva Rayhon, Xo'jayeva Malika - Fayzulla Xo'jayevning birinchi xotini, Petrova Fatina Mixaylovna - Fayzulla Xo'jayevning ikkinchi xotini, Xo'jayeva Viloyat - Fayzulla Xo'jayevning qizi qamoqqa olindi. 1937 yil 23 oktabr kuni esa Robiya Xo'jayeva-Fayzulla Xo'jayevning singlisi, Hamida Xo'jayeva-Ibod Xo'jayevning onasi, Xo'jayeva Amina - Ibod Xo'jayevning xotini hamda Fayzulla Xo'jayev va uning ukasi Ibod Xo'jayevning qamalmay qolgan yosh bolalari ham qamoqqa olindi. Qamoqqa olingan yosh bolalar orasida quyidagilar bor edi. Bozorov Hamroqul - Fayzulla Xo'jayevning asrab olgan o'g'li, 23 yoshda, qishloq xo'jaligi instituti talabasi, Xo'jayev Orif - Ibod Xo'jayevning o'g'li, 16 yoshda, 7-sinf o'quvchisi, Xo'jayev Bo'ri - Ibod Xo'jayevning o'g'li, 9 yoshda, 2-sinf o'quvchisi, Xo'jayev Erik - Ibod Xo'jayevning o'g'li, 7 yoshda, maktabga bormagan, Xo'jayeva Muhtaram - Ibod Xo'jayevning qizi, 12 yoshda, 4-sinf o'quvchisi va Xo'jayeva Mahbuba - Ibod Xo'jayevning qizi, 10 yoshda, 2- sinf

o'quvchisi, Xo'jayeva Muslima-Fayzulla Xo'jayevning singlisi Robiya Xo'jayevaning asrab olgan qizi.[10]

1937 yil 22 sentabrda qamoqqa olinganlar orasida Fayzulla Xo'jayevning onasi 72 yoshli Rayxon Saidmurod qizi Xo'jayeva xam bor edi. U shu yilning 25 oktabrida so'roq qilindi. 1938 yil 2 mayda esa Rayxon Saidmurod qizi Xo'jayevani 5 yil muddatga "mehnat tuzatuv lageri"ga yuborish to'g'risida hukm chiqarildi. 1938 yil 4 iyunda Qarag'andaga yuborish xaqidagi qaror e'lon qilindi. Ammo sog'lig'i yomonlashgani uchun qamoqxona yonidagi kasalxonaga yuborildi va shu yerda vafot etdi.

Fayzulla Xo'jayevning onasi bilan bir vaqtda uning birinchi xotini Malika Xo'jayeva xam qamoqqa olindi. 1937 yil 8 oktabrida so'roq qilindi. Unga qo'yilgan ayb shundan iborat ediki, turmush o'rtog'i Fayzulla Xo'jayevning aksilinqilobiy faoliyatini sovet organlaridan yashirish edi. Unga O'zbekiston SSR jinoyat kodeksining 14,60 va 67 moddalari bo'yicha aybdor deb topilib surgun qilindi. Fayzulla Xo'jayevning nabirasi Rudolf Viktorovich Barxetning eslashicha, Fayzulla Xo'jayevning turmush o'rtog'i Malika Xo'jayeva va uning yagona qizi Viloyat Xo'jayeva uzoq yillar Ust-Kamenagorsk, Ziryanovsk va Selo Kutexa degan joylarda surgun muddatini o'taydilar.

Xulosa qilib aytganda, butun bir oilaga mustabid sovet hokimiyati tomonidan shavfqatsizlarcha munosabatda bo'lindi. Ammo ularning barchasi keyinchalik mustabid tuzumning o'zi tomonidan oqlandi. Fayzulla Xo'jayev oila a'zolarining tom ma'noda aybsiz ekanligi va qatag'on qurboni bo'lganligi to'g'risidagi haqiqat mustaqillik davrida yanada oydinlashdi. Mustaqillik sharofati bilan Xo'jayevlarning shonli taqdiri tiklandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қизил Ўзбекистон. 1937 йил 15 июнь. № 135 (3913).
2. Ҳасанов М.Файзулла Хўжаев.Т.: “Ўзбекистон”,1990.196-197 бетлар.
3. Ҳасаний М., Усмонов И. Ойдин кунлар армони. “Ватан фидойилари” туркумидан. Т.: Ўзбекистон, 1997. 62-бет.
4. Муҳитдинов Н. Кремлда ўтган йилларим. Т.: “Ўзбекистон”, 1995. 163-бет.
5. Ўзбекистон МДА 86-фонд,10- рўйхат,1281- йиғма жилд 1-43 varaқлар.
6. Шамсутдинов Р. Каримов Н. Юсупов Э. Репрессия. Выпуск 1, Т.: “Шарк”, 2005. стр-255.
7. Қизил Ўзбекистон. 1938 йил 13 март. № 59 (4136).
8. Қизил Ўзбекистон. 1938 йил 13 март. № 59 (4136).Қўшимча маълумот учун Ҳасаний М. Усмонов И. Ойдин кунлар армони. “Ватан фидойилари” туркумидан. Т.: “Ўзбекистон”, 1997. 81-82 бетлар.
9. Процесс Бухарина. 1938 г.: Сборник документов. — М.: “МФД”, 2013, стр. 744-745
- 10.Қор қўйнида лолалар.(Қатағон қилинган аёллар тўғрисида очерклар) Т.: ”Академия”, 2001.169-170 бетлар.